KO‘RISH IMKONIYATIGA EGA YUQORI SINF O‘QUVCHILARINING YAKKA XARAKTERDAGI INDIVIDUAL JAVOB REAKSIYALARI

Murodova Xafiza Muxammadjonovna
Qo‘qon davlat universiteti
10.00.01- O‘zbek tili 3-kurs tayanch doktoranti

Ko‘rish imkoniyatiga ega yuqori sinf o‘quvchilarining yakka xarakterdagi individual javob reaksiyalari: aziz zot **1**; baxt **1**; beg‘ubor **1**; bizga kerakli inson **1**; bizga mehribon **1**; bizni mehr bilan katta qilgan **1**; bolasi uchun qayg‘uradigan inson **1**; doim biz haqimizda qayg‘uradilar **1**; dunyodagi eng yaxshi inson **1**; erkalashlari **1**; eng go‘zal inson **1**; eng muqaddas **1**; eng chiroyli ayol **1**; go‘zal **1**; har doim bizni o‘ylaydi **1**; hayotim mazmuni onam **1**; jamiki muhabbatga loyiq inson **1**; jannatga yetaklovchi **1**; jannatim bo‘lgan onam, meni kechiring **1**; jannat onalar oyog‘i ostida **1**; jonkuyar **1**; jonkuyar inson **1**; kechirimli **1**; kulib turuvchi **1**; maktabdan kelganimda quchoqlab oladilar **1**; mehnatkash **1**; mehrli inson **1**; mehrli ko‘zlari **1**; mehrli so‘zlari **1**; meni doim o‘ylaydigan inson **1**; men onamni yaxshi ko‘raman **1**; men sizni juda sog‘indim **1**; meni yaxshi ko‘rib erkalashlari **1**; mening onam hammadan mehribon **1**; mening onam mehribon **1**; muqaddas **1**; non yopayotgani **1**; onajonim mehribon **1**; onajonim mehribonim **1**; mening mehribon onajonim **1**; onajonimning shirin so‘zlari **1**; onam meni yaxshi ko‘radi **1**; onamning oyoqlari ostida jannat bor **1**; ona qizim **1**; ota **1**; o‘zini o‘ylamasa ham, farzandlarini o‘ylaydigan inson **1**; poyida jannat bor **1**; qadrli **1**; “Qayerga ketyapsan?”**1**; “Qizim, dasturxonni tayyorla” **1**; quchoqlagani **1**; quchoqlashlari **1**; rahmdil inson **1**; rahmli **1**; rostgo‘y **1**; sirdosh **1**; ta’riflashga til ojiz **1**; xushmuomalali **1**; xushchaqchaq **1**; yagona **1**; yaxshi gaplari **1**; yaxshi ko‘rish **1**; yaxshi ko‘rishi **1**; “o‘g‘lim” deyishlari **1**; shirin so‘zlari **1**; chiroyli kiyinishi **1**.

Ushbu assotsiativ maydonda ham yakka tartibdagi individual javob reaksiyalari miqdori ko‘p bo‘lganligi sababli ulardan ayrimlarini tahlilga tortamiz.

1. **Onalarning axloqiy va nutqiy fazilatlarini aks ettiruvchi javob reaksiyalari.** Bu turga mansub javob reaksiyalarida yuqori sinf o‘quvchilarining o‘zbek onalarining axloqiy va nutqiy fazilatlari haqidagi tasavvurlari aks etgan: *beg‘ubor (1), bizga mehribon (1), jonkuyar (1), jonkuyar inson (1), kechirimli (1), mehnatkash (1), mehrli inson (1), mehrli ko‘zlari (1), mehrli so‘zlari (1), meni doim o‘ylaydigan inson (1), mening onam hammadan mehribon (1), mening onam mehribon (1), onajonim mehribon (1), onajonim mehribonim (1), mening mehribon onajonim (1), rahmdil inson (1), rahmli (1), rostgo‘y (1), sirdosh (1), xushmuomalali (1), xushchaqchaq (1), yaxshi gaplari (1), shirin so‘zlari (1).*

Bu mazmundagi javob reaksiyalari ko‘rish imkoniyati cheklangan yuqori sinf o‘quvchilarida ham kuzatildi: *eng mehribon inson (1), mehribon odam (1), mehri ummonlardek keng (1).*

Mazkur javob reaksiyalarida o‘quvchilar ongida ona obrazi mehribon, rahmdil, kechirimli, rostgo‘y, mehnatkash, xushmuomalali, shirinso‘z inson sifatida gavdalanganligi kuzatiladi. Shunisi xarakterliki, *ona* turtki so‘ziga nisbatan yuqori sinf o‘quvchilarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan farqli tarzda onalarning nutqiy fazilatlariga tavsif beruvchi javob reaksiyalari ham hosil bo‘lgan. Xususan, *mehrli so‘zlari (1), rostgo‘y (1), xushmuomalali (1), yaxshi gaplari (1), shirin so‘zlari (1)* assotsiatsiyalarida onalarning nutqiy fazilatlari namoyon bo‘lgan. Qolgan assotsiatsiyalarda ona obrazi axloqan mukammal inson sifatida tavsiflangan.

2. **Onalarning farzandiga nisbatan hissiy munosabatini aks ettiruvchi javob reaksiyalari.** Yuqori sinf o‘quvchilarida onasining o‘ziga nisbatan hissiy munosabatini aks ettiruvchi quyidagi javob reaksiyalari yuzaga kelgan: *erkalashlari (1), maktabdan kelganimda quchoqlab oladilar (1), meni*

yaxshi ko‘rib erkalashlari (1), onam meni yaxshi ko‘radi (1), quchoqlagani (1), quchoqlashlari (1), yaxshi ko‘rish (1), yaxshi ko‘rishi (1). Mazkur javob reaksiyalarida ona va farzandi o‘rtasidagi iliq munosabat, mehr-muhabbat aks etgan.

Bu mazmundagi javob reaksiyasi ko‘rish imkoniyati cheklangan yuqori sinf o‘quvchilarining quyidagi javob reaksiyasida ham kuzatildi: *ona bu – do‘st (1).* Ushbu assotsiatsiya sinaluvchiga uning onasi do‘stlarcha yaqin munosabatda bo‘lishini ko‘rsatdi.

Quyidagi javob reaksiyalarida esa ko‘rish imkoniyatiga ega o‘quvchilarning onasiga bo‘lgan hissiy munosabati hamda ijobiy bahosi namoyon bo‘lgan: *aziz zot (1), bizga kerakli inson (1), dunyodagi eng yaxshi inson (1), eng muqaddas (1), hayotim mazmuni onam (1), jamiki muhabbatga loyiq inson (1), men onamni yaxshi ko‘raman (1), men sizni juda sog‘indim (1), muqaddas (1), qadrli (1), ta’riflashga til ojiz (1), yagona (1).* Mazkur javob reaksiyalari yuqori sinf o‘quvchilari ongida ona obrazi eng qadrli, muqaddas, muhabbatga loyiq inson sifatida idrok etilganligi, shuningdek, unga nisbatan yuksak ehtirom tuyg‘ulari shakllanganligini ko‘rsatadi.

Onalarni hissiy baholovchi javob reaksiyalari ko‘rish imkoniyati cheklangan yuqori sinf o‘quvchilarida ham hosil bo‘lgan: *eng buyuk zot (1), juda yaxshi (1), mo‘tabar, ulug‘ zot (1), ona – bu buyuk inson (1), eng buyuk zot (1), buyuk zot (1), men uchun farishta (1), qog‘ozga sig‘maydi!!! (1), yaxshi (1), yonimda har doim tura oladigan (1).* Ushbu javob reaksiyalarida ona obrazi bolalar ongida ijobiy bahoga ega inson sifatida gavlalanganligini ko‘rsatadi. Bu o‘rinda, ayniqsa, *qog‘ozga sig‘maydi!!! (1)* javob reaksiyasi xarakterli. Ushbu javob reaksiyasida sinaluvchi onalarning yuksak xislatlarini shu qadar ulug‘laganki, ularni oddiy so‘z bilan bayon etish imkoni yo‘qligini aytmoqchi bo‘lgan.

Xulosa qilish mumkinki, boshlang‘ich va yuqori sinf o‘quvchilarida *ona* turtki so‘ziga nisbatan hosil bo‘lgan javob reaksiyalarida onalarga bo‘lgan

muhabbatni aks ettiruvchi javob reaksiyalarning kuzatilishi o‘zbek oilalarida ona va farzand o‘rtasidagi yaqinlik yosh xususiyatlaridan qat’iy nazar bolalik yoshida barqaror saqlanishini ko‘rsatadi. Bu holatni, bir tomondan, bolalar hayotida ularga aynan onasi ruhiy va ma’naviy tayanch vazifasini bajarishi, ikkinchi tomondan, o‘zbek jamiyatida onalarga qadriyatli munosabat mavjudligi va bolalarga ham erta yoshidan ushbu qadriyatlarning singdirishi bilan izohlash mumkin. Shu jihatdan turli yoshdagi bolalar assotsiatsiyalarida onalarga nisbatan ijobiy hissiy munosabat namoyon bo‘lgan.

3. **Ona obrazining diniy-ma’naviy qiyofasini tasvirlovchi javob reaksiyalari.** Bu tipdagi quyidagi javob reksiyalarida ona obrazi *jannat, farishta* kabi islomiy tushunchalar bilan bog‘langan: *jannatga yetaklovchi (1), jannatim bo‘lgan onam, meni kechiring (1), jannat onalar oyog‘i ostida (1), onamning oyoqlari ostida jannat bor (1), poyida jannat bor (1).* Ushbu javob reaksiyalarida bolalarning ona shaxsini muqaddaslashtirishi va ilohiylashtirishi namoyon bo‘lgan. Xarakterli jihati shundaki, onalarni jannat bilan bog‘lash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining individual assotsiatsiyalarida ham kuzatilgan edi. Bu holat yurtimizda islomiy qadriyatlar hamda diniy-ma’naviy bilimlarning bolalar tomonidan kichik yoshdaligidayoq o‘zlashtirilishi hamda ona obrazi bilan bog‘liq holda ularning assotsiatsiyalarida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

4. **Onalarning tashqi qiyofasini tasvirlovchi javob reaksiyalari.** Yuqori sinf o‘quvchilarida ham, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kuzatilgani kabi, o‘z onasining tashqi ko‘rinishiga ijobiy tavsif beruvchi javob reaksiyalari yuzaga kelgan. Xususan, *eng go‘zal inson (1), eng chiroyli ayol (1), go‘zal (1), kulib turuvchi (1), chiroyli kiyinishi (1)* javob reaksiyalarida yuqori sinf o‘quvchilari tasavvuridagi o‘zbek onasining tashqi qiyofasi tasvirlangan.

Bu mazmundagi javob reaksiyasi ko‘rish imkoniyati cheklangan yuqori sinf o‘quvchilarida ham kuzatildi: *mening onam dunyodagi eng chiroyli inson (1).*

5. **Onalarning ijtimoiy rollari hamda vazifalarini aks ettiruvchi javob reaksiyalari.** Bu tipdagi javob reaksiyalari faqat bitta sinaluvchining *bizni mehr bilan katta qilgan (1)* assotsiatsiyasida namoyon bo‘lgan. Mazkur javob reaksiyasida ona obrazi farzandini tarbiyalash, uni mehr bilan voyaga yetkazish kabi ijtimoiy vazifani bajaruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘lgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Lutfullayeva D., Karimova F., Saydaliyeva M. O‘zbek tilining assotsiativ tadqiqi. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 152 b.

2.Usmanova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 286 b.

3.Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – 140 б.